



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 28-mart, № 60 (9231)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



IKKI DAVLAT RAHBARLARI BUXORONING TARIXIY VA ZAMONAVIY DURDONALARI BILAN TANISHDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 26-27-mart kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ldi.



Davlat rahbarlari tashrifning ikkinchi kuni qadimiy Buxoroning tarixiy obidalarini ziyorat qilib, sanoat korxonalarini faoliyati bilan tanishdilar. Buxoro xalqaro aeroportida davlatimiz rahbari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonni kutib oldi. Tantanali kutib olish marosimida oliy martabali mehmon sharafiga milliy qo'shiq va raqslar ijro etildi. Qadimiy Buxoro azaldan o'zining benazir tarixiy, me'moriy va madaniy boyliklari bilan mashhur bo'lib, asrlar davomida fan, islom ilmi va

ma'naviyat markazlaridan biri sifatida tanilgan. Yoshi 2,5 ming yildan oshgan shaharning tarixiy markaziga 1993-yilda YUNESKONing Butunjahon merosi obyektiga maqomi berilgan. Oliy martabali mehmon dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildi. Majmua islom olamining ulug' qadamjolaridan biri hisoblanadi. Mazkur ziyoratgoh Naqshbandiyya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband dafn etilgan joyda barpo

etilgan bo'lib, bugungi kunda maqbara, xonaqoh, masjidlar, daxma va so'fiylik tarixi muzeyini o'z ichiga oladi. Bahouddin Naqshband ta'limotining ezgu tamoyili — "Dil ba yoru, dast ba kor" shiori insonni mehnatsevarlik va ruhiy poklikka da'vat etishi alohida ta'kidlandi. So'ngi Somoniylar maqbarasiga tashrif buyurildi. Ushbu me'moriy yodgorlik Markaziy Osiyoda pishiq g'ishtdan buyud etilgan eng qadimiy inshootlardan biri hisoblanadi. U IX asr oxiri X asr boshlarida Somoniylar davlati asoschisi va birinchi hukmdori

Ismoil Somoniy tomonidan sulolaviy maqbara sifatida qurilgan.

Uning me'moriy qiyofasida nafaqat islom, balki islomdan avvalgi davr an'analari, jumladan, sug'd madaniyatiga xos naqshlar ham o'z aksini topgan. Ta'kidlanganidek, quyosh nurlarining tushishiga qarab, maqbara naqshlari turlicha jilolanadi, binoning kub va gumbaz shaklidagi kompozitsiyasi esa Yer va Osmon uyg'unligini ramziy ifoda etadi.

Qalinligi qariyb ikki metrga yetadigan devorlar hamda yuqori sifatli g'isht terimi tufayli ushbu noyob yodgorlik bugungi kungacha yaxshi saqlanib qolgan.

Maqbaralarga ziyorat chog'ida Qur'on tilovat qilinib, o'tganlarga rahmat, yurtimizga tinchlik va farovonlik tilab, duo qilindi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan birgalikda Ark qo'rg'oni, Poi Kalon va Labi Hovuz majmualari bilan tanishdi.

Ark qo'rg'oni Buxoroning qadimiy qal'asi bo'lib, qariyb 1500-yil davomida hukmdorlar qarorgohi sifatida xizmat qilgan. Uning dastlabki binolari miloddan avvalgi IV-III asrlarga mansub bo'lib, hozirgi ko'rinishi, asosan, XVI asrda shakllangan. Ilgari u saroylar, ma'muriy binolar, qorolxonani o'z ichiga olgan "shahar ichidagi shahar" bo'lgan. O'rta asrlarda bu yerda Rudakiy, Ibn Sino va keyinchalik Umar Xayyom kabi buyuk mutafakkirlar yashab, ijod qilgani qayd etildi.

Poi Kalon majmuasi Buxoroning eng ulug'vor va mashhur me'moriy ansambllaridan biri sifatida tojikistonlik mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. U 1127-yilda qurilgan mashhur 45,6

metrli minora, 1514-yilda barpo etilgan va 12 ming kishini sig'dira oladigan jome masjidi, shuningdek, islom olamining eng nufuzli ta'lim muassasalaridan biri hisoblangan Mir Arab madrasasini o'z ichiga oladi. Masjid hovlisini o'rab turgan 288 ta gumbazli galereya, yuzlab ustunlar va noyob akustika majmuaga alohida ulug'vorlik bag'ishlaydi.

Labi Hovuz ansambli Buxoroda saqlanib qolgan o'rta asrlarga oid sanoqli maydonlardan biri bo'lib, uning markazida qadimiy hovuz joylashgan. Asrlar davomida shahar aholisi bu yerga dam olish, suhbatlashish va savdo qilish uchun kelgan. Majmua tarkibiga Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqohi kiradi.

Tojikiston yetakchisi har bir tarixiy obidaning badiiy uyg'unligi, milliy hunarmandchilik namunalari va tarixiy eksponatlarga katta qiziqish bildirdi. Oliy martabali mehmonga me'moriy uslubning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, naqshlar va ramzlarning mazmun-mohiyati haqida batafsil ma'lumot berildi.

Buxoroning boy tarixi, Buyuk Ipak yo'lidagi o'rni, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan ulkan hisssasi haqida hikoya qiluvchi bu qadamjolar Tojikiston delegatsiyasida chuqur taassurot qoldirdi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida mamlakatimiz yengil sanoatining imkoniyatlari bilan ham tanishdi.

Davlat rahbarlari Buxoro viloyatidagi "Merganteks" paxta-to'qimachilik klasteri tarkibidagi "Nigora" fabrikasiga tashrif buyurdilar.

Qiyamati 35 million dollarlik loyiha doirasida tashkil etilgan fabrika paxta xomashyosini qayta ishlashdan tortib, tayyor mato va kiyim-kechak tayyorlashgacha bo'lgan uzluksiz ishlab chiqarish zanjirini yo'lga qo'ygan.

"Shoyigul" savdo belgisi ostida ishlab chiqarilayotgan tikuv-trikotaj va tayyor kiyim mahsulotlari, asosan, Yevropa mamlakatlariga, xususan, Italiya, Avstriya, Buyuk Britaniya va Germaniyaga eksport qilinmoqda. Bu yerda 840 ta ish o'rni yaratilgan.

Korxonada xalqaro standartlarga javob beruvchi zamonaviy yuqori texnologik uskunalari Xitoy, Germaniya va Belgiyadan olib kelingan. Ikkinchi bosqichda sintetik tolalar va undan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

Oliy martabali mehmonlar korxonaning shou-rumini va tayyor mahsulotlar namoyishini ko'zdan kechirdilar.

Yiliga 10 million dollarlik eksport qilayotgan fabrika mahsulotlarining sifati Tojikiston delegatsiyasi tomonidan yuqori baholandi.

Prezidentlar mamlakatlarimizning ilg'or korxonalarini o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirish muhimligini ta'kidladilar.

Tadbirlar yakunlangach Buxoro xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kuzatib qo'ydi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Buxoro viloyatiga tashrifi yakunlandi.

**Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Zarif KOMILOV,
O'ZA muxbirlari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

PARLAMENTLARARO HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHGA KELISHILDI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasining Tashqi ishlar va birlashish qo'mitasi raisi Kim Sok Ki bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlari ishonch, o'zaro hurmat va strategik sheriklik tamoyillari asosida izchil rivojlanib borayotgani ta'kidlanib, oliy darajadagi muloqotlar doirasida erishilgan kelishuvlarning amaliy ijrosi ijobiy baholandi.

Parlamentlararo aloqalar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi, xususan, Toshkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi parlamentlari rahbarlarining uchinchi yig'ilishi samarali o'tdi. Ushbu format dolzarb masalalarni muhokama qilish va ularga birgalikda yechim topish uchun samarali platforma ekani qayd etildi.

Uchrashuvda parlamentlararo

hamkorlik guruhlarini faollashtirish, oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, tegishli qo'mitalar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish yuzasidan fikr almashildi. O'z navbatida, qonunchilik sohasida tajriba almashish, jumladan, "yashil" iqtisodiyot, sun'iy intellekti joriy etish va kambag'allikni qisqartirish kabi yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirishga kelishib olindi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy, investitsiya, turizm, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalaridagi sheriklikni faollashtirish muhimligiga urg'u berildi. Uchrashuv yakunida tomonlar parlamentlararo aloqalarini yanada chuqurlashtirishga tayyor ekanini tasdiqladi.

«Xalq so'zi».

Munosabat YANGI BOSQICH VA STRATEGIK ISTIQBOLLAR

Dunyodagi geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlar tobora shiddatli tus olgan bugungi kunda mintaqamizda davlatlararo ishonch, yaxshi qo'shnichilik hamda strategik sheriklik munosabatlari har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kuni kecha Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon o'rtasida o'tkazilgan muzokaralar hamda Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishi nafaqat ikki tomonlama munosabatlarda, balki butun mintaqa taraqqiyotida muhim voqea bo'ldi.

Bu tashrifning tarixiy ahamiyati, avvalo, ikki xalqni asrlar davomida bog'lab kelgan do'stlik va hamjihatlik rishtalarini yangi bosqichga olib chiqqanligi bilan izohlanadi. Ikki davlat rahbarlari ta'kidlaganidek, Oliy davlatlararo kengash formati

munosabatlarni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarib, amaliy hamkorlikni yanada institutsionalashtirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi aloqalar jadal rivojlanib borayotgani, albatta, tahsinga

sazovor. Hukumatlar, parlamentlar va turli idoralar o'rtasidagi muloqotlar tizimli tus oldi. Bu esa o'zaro ishonchni mustahkamlash bilan birga, iqtisodiy va gumanitar aloqalarini kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Tashrif arafasida o'tkazilgan Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, sanoat ko'rgazmalari va turli forumlar ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning amaliy mazmunga ega ekanini yana bir bor namoyon qildi. Ayniqsa, madaniyat va kino kunlarining tashkil etilishi xalqlar o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni yanada kuchaytirishi, shubhasiz.

Munosabat

TIZIMLI VA BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDA

Tarixiy yaqinlik va mushtarak qadriyatlar qanchalik muhim bo'lmasin, davlatlararo munosabatlarning haqiqiy qiymati aniq natijalar, raqamlar hamda insonlar hayotidagi o'zgarishlar bilan o'lchanadi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti ikki kunlik davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'lgani ana shu jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Ko'ksaroy qarorgohida o'tgan Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishi nafaqat siyosiy muloqot, balki aniq iqtisodiy va institutsional qarorlar qabul qilingan maydonga aylandi. So'nggi yillardagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri o'zaro

savdo hajmining qariyb 1 milliard dollarga yetganidir. Bu raqam ortida ishlab chiqarish zanjirlarining tiklanayotgani, tayyor mahsulotlar ayiriboshlash ulushi ortib borayotgani mujassam. Endi esa tomonlar oldiga yanada katta vazifa qo'yildi — yaqin istiqbolda ushbu ko'rsatkichni 2 mrd. dollarga yetkazish. Mazkur maqsad aniq mexanizmlar bilan ta'minlanmoqda.

Tashrif davomida imzolangan hujjatlar paketi o'zining qamrovi bilan ajralib turadi. Savdo, sanoat, sog'liqni saqlash, fan, innovatsiya, turizm va agrosanoat sohalarini qamrab olgan dasturlar 2026 — 2028-yillarga mo'ljallangan aniq rejalar bilan boyitilgan. Bu esa hamkorlikni qisqa muddatli emas, balki tizimli va barqaror rivojlanish yo'lga o'tkazadi.

Suv va energetika masalalariga alohida e'tibor qaratilgani ham muhim. Markaziy Osiyo sharoitida bu yo'nalish nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatga ega.

Deputatlar — hududlarda

MULOQOTLAR QIZG'IN VA FOYDALI BO'LDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari shu haftada hududlarda bo'lib, aholini o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish, amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini o'rganish maqsadida saylovchilar bilan ochiq muloqotlar o'tkazdi. Asosiy e'tibor fuqarolar murojaatlari va ularning yechimiga qaralilib, bu boradagi ishlar atroflicha tahlil qilindi.

Ijtimoiy masalalar diqqat markazida

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Firdavs Sharipov Denov tumanida bo'lib, aholi bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Dastlab deputat kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan og'ir toifadagi

"Yangi xazarbog", "Jamatak" mahalla fuqarolar yig'inlarida bo'lib, amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturining yo'nalishlar kesimida ijro etilish holatini o'rgandi. Uchrashuvda mahallalarni obod qilish, odamlar hayotini yaxshilash

va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha takliflar berildi. Shundan so'ng deputat joriy yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturining ijrosi bo'yicha tumandagi 68 va 27-maktablarni rekonstruksiya qilish ishlari bilan tanishdi. Pudratchi, loyihachi, buyurtma beruvchilar bilan muloqotga kirishib, qurilishni o'z muddatida va sifatli tarzda amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Shuningdek, xalq vakili Denov tumani ichki ishlar bo'limida ham bo'lib, Prezidentimizning "2025-yilda respublika mahallalarida

xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan olib borilayotgan ishlarni o'rgandi. Mazkur qarorda nazarda tutilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi hamda amaliyotda uchrayotgan muammolar tinglandi. Keyingi manzil — tumandagi "Buyuk Ipak yo'li" mahalla fuqarolar yig'ini bo'ldi. Deputat bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan

tanishib, "mahalla yetilligi" faoliyatini o'rgandi. Muloqotlar chog'ida qator takliflar olindi.

Tumandagi "Qiziljar" mahalla fuqarolar yig'inida aholi murojaatlari tinglandi. Xususan, mahalla faollari, nuroniylar tomonidan ichki yo'llarni ta'mirlash, elektr ta'minoti va oqova suv muammosi, piyodalar yo'lakhasini qurish, asosiy yo'lga svetofor o'rnatish orqali chorrahani tartibga solish kabi masalalar yuzasidan murojaatlar qilindi. Ularning ayrimlari joyida hal etilgan bo'lsa, ba'zilarining yechimlari nazoratga olindi.

Senat qo'mitasida

ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH MUDDATLARI ANIQLASHTIRILMOQDA



Oliy Majlis Senati Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi ishchi guruhining kecha bo'lib o'tgan yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama markazida bo'ldi.

Tadbirida qo'mita a'zolari, mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari raislari, ekspertlar, tegishli vazirlik va idoralar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Aytgandek, ushbu qonun bilan "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonunga arxiv ishi sohasidagi vakolatli davlat organlarining vakolatlarini, nodavlat va elektron arxivlarni tashkil etishga doir qoidalarni hamda arxiv hujjatlarini idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash muddatlarini aniqlashtiruvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor



qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunga ham qo'shimchalar kiritish ko'zda tutilmoqda. Unga ko'ra, tadbirkorlik subyektlariga amalga oshirilishi uchun litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat olish talab qilinadigan faoliyat (harakatlar) bilan "Biznesga litsenziyasiz kirish" maxsus rejimi doirasida litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat olmasdan uch oy muddat davomida shug'ullanish imkoniyati yaratiladi.

Qonun tashabbuskorlari ushbu hujjat arxiv ishing huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga, fuqarolarni tadbirkorlik sohasiga kengroq jalb etishga xizmat qilishini ta'kidlashdi.

Muhokama yakunida ushbu qonunni navbatdagi qo'mita majlisida ko'rib chiqishga kelishib olindi.

Hamkorlik

MAQSAD – QONUN IJODKORLIGI SIFATINI OSHIRISH

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi hamda "Taraqqiyot strategiyasi" markazi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

Mazkur hujjat parlament nazoratini ilmiy-uslubiy jihatdan mustahkamlash hamda qonun ijodkorligi sifatini oshirishga qaratilgan.

Ushbu hamkorlik parlament faoliyatini ilmiy-tahliliy jihatdan qo'llab-quvvatlashni, qonun ijodkorligi faoliyatining samaradorligini oshirishni, qonunchilik jarayoniga ilmiy yondashuvni keng joriy etishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, xalqaro munosabatlari va iqtisodiy diplomatiya masalalari yuzasidan konferensiyalar, davra suhbatlari va ochiq muloqotlar tashkil etishda ekspertlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilishga e'tibor qaratiladi.

Vebinar

HAYOT ZAVQI SALOMATLIK VA FAROVONLIKDA

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining uzoq umr ko'rish bo'yicha Yevropa mintaqasi strategiyasi loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan vebinar bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Oral Ataniyazova onlayn formatda ishtirok etdi.

Tadbirida JSST Yevropa mintaqasi mamlakatlarining tegishli idoralari vakillari va ekspertlar qatnashdi. Asosiy e'tibor "Keksalik – bu hayot: JSSTning Yevropa mintaqasida hayotning barcha bosqichlarida insonlar salomatligi va farovonligini ta'minlashning 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" loyihasiga qaratildi.

Taklif etilayotgan hujjat keksa insonlarning hayot sifatini yaxshilash, ularning mustaqilligini ta'minlash, ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan.

Tadbir yakunida ishtirokchilar hujjatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha fikr almashdi va sog'lom keksayish siyosatini ilgari surish sohasida davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish muhimligini ta'kidladi.

«Xalq so'zi».

YANGI BOSQICH VA STRATEGIK ISTIQBOLLAR



Iqtisodiy hamkorlikka to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda o'zaro savdo hajmi qariyb 1 mlrd. dollarga yetgani muhim yutuqdir. Biroq mavjud salohiyat bu bilan cheklanib qolmaydi. 2028-yilga borib savdo aylanmasini 2 mlrd. dollarga yetkazish rejasi aniq va amaliy qadamlar bilan mustahkamlanmoqda.

Sanoat kooperatsiyasi bu boradagi eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Qurilish, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, elektrotexnika va farmatsevtika sohaslarida amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qiladi.

Transport va logistika sohasidagi yutuqlar ham alohida e'tiborga loyiq. Bugungi kunda ikki mamlakat poytaxtlari o'rtasida muntazam

aviaqatnovlar, avtobus va temir yo'l aloqalari yo'lga qo'yilgan. Bu esa tovar hamda xizmatlar harakatini jadallashtirib, biznes muhitini yanada yaxshilamoqda.

Shuningdek, "Oybek – Fotihobod" chegaraoldi savdo markazini barpo etish, raqamli ruxsatnoma tizimlarini joriy qilish va chegara infratuzilmasini modernizatsiyalash kabi tashabbuslar ikki tomonlama savdoni yangi bosqichga olib chiqishi, shubhasiz.

Muzokaralar doirasida yirik kooperatsiya loyihalarining ishga tushirilishi hamkorlikning amaliy natijalarga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Turli hududlarda sanoat korxonalarini tashkil etish, oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish kabi tashabbuslar iqtisodiy integratsiyani yanada chuqurlashtiradi.

Demak, Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon o'rtasidagi

ochiq, ishonchli va pragmatik muloqot nafaqat ikki davlat manfaatlariga, balki butun Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan muhim siyosiy poydevorni mustahkamladi.

Eng muhimi, mavzular uchrashuvlar va qabul qilingan qarorlar rasmiy bayonotlar doirasida qolib ketmay, aniq iqtisodiy natijalar, yangi ish o'rinlari, infratuzilma rivoji va aholi farovonligi orqali o'z ifodasini topishi kutilmoqda. Bu esa davlatlararo munosabatlarning real mazmun bilan boyib borayotganini anglatadi.

Shuhrat ASLANOV, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

TIZIMLI VA BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDA

"Yashil" energetika loyihalarini birgalikda amalga oshirish, suv resurslarini raqamlashtirish va samarali boshqarish bo'yicha kelishuvlar kelgusidagi barqaror taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi.

O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlari ishtirokida "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida o'tkazilgan, ikki mamlakat san'atkorlari ijrosidagi an'anaviy qo'shma konsert birodar xalqlarimizning boy madaniy merosini namoyon etish, uzoq tarixiy qadriyatlar va ma'naviy o'zaro yaqinlikni his qilish imkonini berdi.

Tashrifning Buxoroda davom etgani, ayniqsa, ramziy va ma'naviy jihatdan chuqur ma'no kasb etdi. Buxorodagi Bahouddin Naqshband



maqbarasi va Somoniylar maqbarasi ziyorati orqali ikki xalqni bog'lab turgan umumiy ildizlar yana bir bor namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, Ark qo'rg'oni, Poi Kalon ansambli va Labi Hovuz majmuasi kabi betakror tarixiy obidalar bilan tanishuv tashrifga alohida mazmun baxsh etdi. Qariyb bir necha ming yillik tarixni o'zida mujassamlagan Ark qo'rg'oni, yuksak me'moriy yechimlari bilan ajralib turadigan Poi Kalon ansambli, shahar hayotining asrlar davomidagi markazi bo'lgan Labi Hovuz majmuasi orqali Buxoroning Buyuk Ipak yo'lidagi

o'mi, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan ulkan hisssasi yana bir bor namoyon etildi. Bu qadamlar nafaqat o'tmishning guvohi, balki xalqlarimizni birlashtirib turgan ma'naviy ko'priklar sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bu esa tarixga ehtirom bilan yondashish orqali kelajakni birgalikda barpo etishga bo'lgan qat'iy ishonchni mustahkamlaydi.

Mazkur jarayonlarda parlamentlararo hamkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Qonunchilik palatasi deputatlari va Tojikiston parlamenti vakillari o'rtasidagi muloqotlar, do'stlik guruhlari faoliyati bugungi kelishuvlarning huquqiy va institutsional ta'minlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa,

qabul qilinayotgan dastur va bitimlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, ijrosini parlament nazorati orqali ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishi ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi. Tashrifga tayyorgarlik doirasida hukumatlar, vazirliklar va idoralar bilan bir qatorda parlamentlar, hududlar, rektorlar va olimlar o'rtasida faol muloqotlar hamda qo'shma forumlar uyushtirildi, bu barcha sohada aloqalarning izchil va tizimli rivojlanayotganini namoyon etdi.

Tojikiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizdagi ikki kunlik tashrif muhim voqea sifatida tarixga kirdi. Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi tufayli bugun O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari ramziy do'stlikdan ilgari o'tib, aniq iqtisodiy manfaatlar, amaliy loyihalar va o'zaro mas'uliyat asosida shakllangan strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi. Bu hamkorlik nafaqat ikki davlatning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror taraqqiyoti va farovonligi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Hilola YUSUPOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

O'rganish

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi tomonidan tuzilgan ishchi guruh Navoiy viloyatida atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar holatini o'rgandi.

HAVONI IFLOSLANTIRUVCHI MODDALAR NAZORATI KO'NGILDAGIDEKMI?

Ishchi guruh "Navoiyazot" hamda "Navoiy issiqlik elektr stansiyasi" aksiyadorlik jamiyatlarini faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mazkur korxonalarda ekologik barqarorlikni ta'minlash, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar hajmini kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'zdan kechirildi.

Jumladan, "Navoiyazot" AJ tomonidan uchta avtomatik monitoring stansiyasi hamda Navoiy shahri va Karmana tumani hududlarida 28 ta statsionar kuzatuv punkti o'rnatilgan. Korxonada atrofida "yashil" belbog' barpo etish ishleri ham amalga oshirilgan. Bundan tashqari, ushbu korxonaga qarashli oqova suvlarni tozalash inshootining faoliyati o'rganildi.

Karmana tumanida joylashgan "Navoiy issiqlik elektr stansiyasi" AJda ham atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarni nazorat qilish maqsadida ikkita avtomatik stansiya o'rnatilgan. Qolaversa, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "M-37" avtomagistrali yoqasida 50 gektar maydonda manzarali daraxtlar ekilib, yashil hudud barpo etilgan.

E'tiborlisi, har ikki korxonada ham yuqori xavf darajasiga ega ifloslantiruvchi manbalardan avtomatik namuna olish tizimini joriy qilish bo'yicha choralar ko'rilmoqda.

O'rganish doirasida ishchi guruh tomonidan qator amaliy tavsiyalar berildi. Jumladan, yirik sanoat korxonalarida atrofida "yashil belbog'larni kengaytirish, atmosfera havosi sifatini doimiy monitoring qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, xavfli gidrometeorologik holatlar va havoning yuqori darajada ifloslanishi yuzasidan aholini erta ogohlantirish tizimini takomillashtirish zarurligi alohida aytiladi.

«Xalq so'zi».

MULOQOTLAR QIZG'IN VA FOYDALI BO'LDI

Bundan tashqari, "Tashabbusli byudjet" jarayonlari doirasida saylov okrugi g'olib bo'lmagan loyihalar orasidan aholining kundalik hayotiga va hududni rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladigan loyihalar saylovchilarning manfaatlarini inobatga olgan holda o'rganildi.

Mahalla – islohotlar va farovonlik manzili

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Mohira Xo'jayeva Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi "Bo'ston" mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, hududning ijtimoiy qiyofasi va aholi yashash sharoitlari bilan tanishdi.

Mahalla faollari bilan kechgan qizg'in muloqotda "mahalla yetilligi"ning hamkorlikdagi faoliyati tahlil qilindi.

O'rganishlar davomida deputat asosiy e'tiborni oilalarni kambag'allikdan chiqarish va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarni qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlariga qaratdi. Xususan, tadbirkorlikka yo'naltirish orqali daromad manbaini yaratish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Mahalla nafaqat ma'muriy birlik, balki xalqning dardi tinglanadigan, islohotlarning amaliy natijasi ko'rinadigan eng muhim bo'g'in ekani qayd etildi.

– Biz uchun har bir xonadonning ijtimoiy holati, har bir fuqaroning muammosi muhim. Mahalla tizimini samarali tashkil etish degani, bu shunchaki hisobot berish emas, balki odamlarning hayotida ijobiy o'zgarish yasash demak, – deydi deputat. – Agar mahalla faollari har bir oila bilan tizimli ishlasa, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga tezroq erishamiz.

Xalq vakili, shuningdek, Bo'stonliq tumanidagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabda o'quvchilar, pedagogik jamoa bilan uchrashuv o'tkazdi. Mazkur bilim dargohida 500 nafar o'quvchi tahsil oladi va 40 nafar pedagog faoliyat yuritadi. Ta'lim jarayoni 5 – 11-sinflarni qamrab oladi. Maktabda zamonaviy kutubxona, fan to'garaklari va sport mashg'ulotlari uchun maxsus xonalar mavjud.

Ta'lim muassasasi jamoasi bilan samimiy muloqot chog'ida globallashuv sharoitida ekologiya va atrof-muhit muhofazasining dolzarbligi, amalga oshirilayotgan islohotlar hamda bu jarayonda yoshlar oldidagi vazifalar

batafsil muhokama qilindi. Shuningdek, so'nggi yillarda ta'lim yo'nalishida olib borilayotgan izchil islohotlar, sohaga doir qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Amaliy takliflar ilgari surildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Yelena Kopolujik Samarqand shahridagi "Gulobod" mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, aholi turmush darajasini oshirish borasida qilinayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.

Muloqotda, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish hamda yangi ish o'rinlari yaratish masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Faol yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini rivojlantirish yuzasidan ham qator amaliy takliflar ilgari surildi.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, infratuzilmani yaxshilash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash kabi ustuvor yo'nalishlar muhokama markazida bo'ldi. Mahalladagi jinoyatchilikka sabab bo'layotgan omillar tahlil qilinib, ularni kamaytirish bo'yicha aniq choralar belgilandi.

Deputat, shuningdek, Samarqand shahridagi Hazora hamda Bog'ichinor mahallalarida bo'lib, hududdagi 12 va 54-maktabgacha ta'lim muassasalari, shuningdek, 66-umumta'lim maktabi faoliyatini o'rgandi. Ta'lim sifati, yaratilgan shart-sharoitlar hamda infratuzilma holati tahlil qilindi.

Xususan, 54-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti 1961-yilda qurilgani va hozirda 120 o'ringa mo'ljallangan qayd etildi. Muassasa hududidagi mavjud yer maydonidan foydalanib, qo'shimcha bino qurish imkoniyati borligi ta'kidlandi. Shu bilan birga, bolalar uchun zarur mebel jihozlari yetishmasligi ma'lum bo'ldi.

Uchrashuvlar yakunida deputat tomonidan ta'lim muassasalarini rivojlantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va bolalar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar aytili.

Xalq vakili Samarqand shahridagi qator tibbiyot muassasalarida ham bo'lib, ularning faoliyatini yaqindan o'rgandi. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yanada yaxshilash, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish va bemorlar uchun qulay muhit yaratish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Tashabbus – amaliyotda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Guljan Xalmuratovaning Qoraqalpog'iston Respublikasidagi saylovchilar bilan uchrashuvlari amaliy natijalarga boy bo'ldi.

Xalq vakilining aholi bilan muloqotlari davomida fuqarolar tomonidan milliy san'atimizning ajralmas qismi bo'lgan jirovchilikni rivojlantirish, uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ilgari surilgan edi. Ushbu tashabbusni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish maqsadida deputat tomonidan grant loyihalarini ishlab chiqishga qaratilgan aniq taklif va tavsiyalar berildi. Xususan, "Art Karakalpakstan" madaniyat va san'atni rivojlantirish tashkiloti tomonidan "Ustaxonona – milliy meros" loyihasi ishlab chiqildi.

Loyiha rahbarining mazkur g'oyasi deputat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, uni yanada takomillashtirish, grant mablag'larini jalb etish hamda davlat ijtimoiy buyurtmasi tashkiloti qatnashish bo'yicha amaliy va uslubiy ko'mak ko'rsatildi. Natijada ushbu tashabbus puxta ishlangan loyihaga aylantirilib, davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasida g'olib, deb topildi.

Loyiha doirasida Nukus tumani "Aqmang'it" hududida Markaziy Osiyo xalqlarining milliy musiqa asboblarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan zamonaviy ustaxonaga ham barpo etilmoqda. Unda qo'biz, dutor, chanqovuz, g'ijjak kabi milliy cholg'u asboblarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Mazkur tashabbusni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida mablag' ham ajratildi. Ayni paytda qurilish ishlari yakuniga yetkazilib, ustaxonani yaqin kunlarda foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan.

– Bu loyiha nafaqat moddiy infratuzilmani yaratish, balki milliy san'atni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga yetkazish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda ularni zamonaviy kasb-hunarlariga yo'naltirishga xizmat qiladi, – deydi deputat. – Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda 30 dan ortiq professional jirovlar faoliyat yuritmoqda. Yangi ustaxonalar ularning ijodiy faoliyatini yanada kengaytirish, yoshlar uchun mustahkam o'quv-amaliy baza yaratish imkonini beradi.

Uchrashuvlar davomida deputat mazkur loyiha ijrosi bilan joyiga chiqqan holda tanishib, qurilish jarayonini yuqori sifatda amalga oshirish bo'yicha zarur tavsiyalar berdi.

«Xalq so'zi».

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



TALABALAR BILAN UCHRASHUV

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabalar bilan uchrashuv o'tkazildi. Ushbu tadbir Prezidentimiz tomonidan joriy yil fevral oyida yoshlar bilan muloqot davomida belgilab berilgan vazifalar doirasida tashkil etildi.

Muloqotda davlatimiz rahbarining yoshlarga qaratayotgan doimiy e'tibori ularning ertangi kunga ishonchini, o'z kuch va imkoniyatlariga qat'iyatni yanada mustahkamlayotgani alohida ta'kidlandi.

Uchrashuvda deputatlar talabalarga quyi palata, siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mitalar, komissiyalar hamda Yoshlar parlamenti ish faoliyati haqida ma'lumotlar berib o'tdi. Shuningdek, yoshlar qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni dastlabki tarzda ko'rish, birinchi va ikkinchi o'qishga tayyorlash, yalpi majlis muhokamalariga kiritish bilan bog'liq muhim masalalar yuzasidan ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldi. Ayniqsa, palataning OAV bilan hamkorlik masalalariga qiziqish bildirildi.

Ta'kidlanganidek, Qonunchilik palatasi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish borasida yangi tizim asosida ish tashkil qilingan. Prezidentimizning Oliy Majlis palatalaridagi nutqlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, palataning keng qirrali faoliyatini birdek keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha yangi, zamonaviy mediauslublar joriy etilgan.

Ko'plab qabul qilinayotgan qonunlar xalqchi va ta'sirchan

uslubda OAVda muntazam yoritib borilmoqda. Ayniqsa, keng auditoriyaga ega internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda palata faoliyatini o'z ichiga olib olgan ommabop shakl va mazmunda targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilayotir.

Palata majlislari uning rasmiy veb-sayti orqali jonli efirga uzatilayotgani keng jamoatchilik vakillarining palatada qonun loyihalarini muhokama etish va qabul qilish jarayoniga qiziqishini yanada oshirmoqda.

Uchrashuvda Qonunchilik palatasidagi yangiliklarni yoritishda OAV vakillarining o'zining muhim ekani aytilib, bo'lajak jurnalistlarga palata faoliyatini yoritishda xalqchilik, tahlil va ta'sirchan uslublar, zamonaviy kommunikatsiya formatlaridan keng foydalanish, axborotni to'g'ri hamda xolis yetkazish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi. Bu kabi muloqotlar yoshlarning takliflarini eshitish va ularni qonun ijodkorligi faoliyatiga keng jalb qilish, g'oyalarni qonunlarda aks ettirish yo'lida muhim qadam bo'lishi urg'ulandi.

Muloqotda yoshlar Qonunchilik palatasining Matbuot xizmati faoliyati bilan ham tanishib, o'zlarini qiziqitirgan barcha savollariga batafsil javob oldi.

«Xalq so'zi».

YER OSTIDAGI NOYOB XAZINA

yoxud strategik metallar va minerallar bozorida O'zbekistonning pozitsiyasi qanday?

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bugungi kunda geologik qidiruv ishlari borgan sari jadallashib, yangi bosqichga chiqmoqda. Agar mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilgan, davlatimiz strategik resurslar ekspordida ham muhim o'rin egallashi turgan gap. Aynan shu nuqtai nazardan qaraganda, 16-mart kuni Prezidentimizning O'lmalik kon-metallurgiya kombinatiga tashrifi sohaning bugungi va ertangi istiqbolini belgilab bergan muhim voqeyaga bo'ldi. Davlatimiz rahbari mazkur tashrif davomida nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdi, balki strategik metallarni chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish masalalariga ham alohida urg'u berdi.

Aks sado

O'tgan 2025-yilda Prezidentimiz qaroriga muvofiq "xomashyo – qayta ishlash – ilim va texnologiya – tayyor mahsulot" zanjirini kengaytirish yo'nalishida ikki yillik dastur qabul qilindi. Unga ko'ra, 1,6 mlrd. dollarlik 71 ta loyiha bo'yicha ish boshlandi. O'lmalik kon-metallurgiya kombinatidagi islohotlar ham shu strategiyaning amaliy ifodasidir. Prezidentimiz tashrifi davomida yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot turini kengaytirish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

O'zbekistonda innovatsiya va zamonaviy sanoat sohaslarida amalga oshirilgan ulkan loyihalardan biri sifatida "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" aksiyadorlik jamiyati (O'ZTMK) tashkil qilingani soha rivojida katta o'rin tutmoqda. Yurtimizdagi oltin va kumush ishlab chiqaruvchi Navoiy kon-metallurgiya kombinati, shuningdek, mis ishlab chiqarish bo'yicha O'lmalik kon-metallurgiya kombinati milliy iqtisodiyotimizning avangardlaridan

bo'lsa, endilikda bu safga O'ZTMK ham qo'shildi.

Kombinatning asosiy maqsadi – yurtimizning sanoat uchun muhim mineral resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish, shu orqali ichki bozorni ta'minlash va tashqi bozorga raqobatbardosh mahsulot chiqarishdir. Kombinatta hozirda molibden va volfram ishlab chiqarilib, ulardan qo'shimcha qiymat yaratilayotir. Ya'ni ularning qotishmalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. O'ZTMK ruda qazib chiqarishdan tortib qayta ishlash va tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan zanjirini qamraydi. Natijada 2028-yilga borib mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1 mlrd. dollarga yetadi.

Xalqaro integratsiya va milliy manfaat

O'zbekistonning imkoniyatlari xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Kanadada bo'lib o'tgan Kamyob yer elementlari uyushmasining xalqaro

anjumanida O'ZTMK mutaxassislari ham qatnashdi va kombinat rasmiy a'zolikka qabul qilindi, bu bilan mamlakatimiz dunyoning eng yirik kamyob yer metallari sanoati tarmog'iga qo'shildi.

Yevropa Ittifoqi hamda Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar bilan izchil hamkorlikka erishilgan. Misol uchun, YEI mamlakatlari uchun litiy va kobalt kabi elementlar ustovor ahamiyatga ega. Shu bois xorijlik hamkorlar bilan qazib olish va qayta ishlash bo'yicha qator qo'shma loyihalarni yo'lga qo'ydik. Bunda resurslarni xomashyo sifatida eksport qilish emas, balki ularni qayta ishlash, qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish asosiy maqsadga aylangan.

Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan ham hamkorlik yangi bosqichga chiqaypti. Ular yurtimizda yuqori texnologiyali qayta ishlash zavodlarini qurishga qiziqish bildirmoqda. Toshkent viloyatida kukun metallurgiyasini rivojlantirish uchun Janubiy Koreya 15,5 mln. dollarlik grant ajratgan.

Turkiya, Germaniya, Finlyandiya va Xitoy kompaniyalari bilan geologiya-qidiruv, mineralarni boyitish, gidrometallurgiya, pirometallurgiya loyihalarini texnik iqtisodiy asoslash hamda zamonaviy texnologiyalarni yetkazib berish bo'yicha hamkorlik aloqalarini olib boryapmiz. Masalan, Turkiyaning "Ostem" kompaniyasi ishtirokida Chirchiq va Ohangaron, Nurobod va Zomin tumanlarida xenoparklar barpo qilyapmiz. Qisqasi, yetimshand ortiq mana shunday loyihalar ustida ishlar qizg'in davom etmoqda.

Mutaxassis tayyorlash mas'uliyati

Yurtimizda noyob va texnologik metallar sohasini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlarini, balki ta'lim tizimini ham qamrab olmoqda. Tog'-kon sanoatida hozirda 120 mingdan ziyod mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Shu paytgacha asosiy urg'u oltin, kumush, mis, ko'mir konlariga qaratilib, soha uchun mutaxassislar vazirlik tizimidagi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar hamda Geologiya fanlari universitetlarida tayyorlanadi. 2024-yildan boshlab bu sohani qayta ko'rib chiqishga zarurat paydo bo'ldi. Strategik metallar va minerallar sohasini bugungi zamon mezonida yuritish bo'yicha yangi talabdagi kadrlarni tayyorlash ehtiyoji ortdi. Chunki qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish uchun mutaxassislar zarurat tubdan ortyapti. Endilikda mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda kadrlar yetkazib berishga jiddiy kirishildi.

Bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biri – Texnologik metallar oliy maktabining tashkil etilishi bo'ldi. O'zbekiston texnologik metallar kombinati tomonidan ochilgan oliy maktabimiz metallurgiya, geologiya, kimyo va nanotexnologiya sohaslarida ilmiy salohiyatli mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan. Oliy maktabda ta'lim jarayonlari xalqaro andozalar asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy-amaliy markazlar tashkil etilgan. Iqtidorli talabalar Kanada, Yaponiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda amaliyot o'tab, tajriba orttirib kelmoqda.

Eng muhimi, bu ta'lim muassasasi talabalarini ta'lim grant asosida o'qiydi va bitiruvchilar ish bilan ta'minlanadi.

Masalaning yana bir tomoni, O'zbekiston o'z resurslaridan samarali foydalanish bilan birga, xalqaro standartlarga mos ravishda ekologik xavfsizlikka jiddiy e'tibor qaratayotgani bilan ham ajralib turadi. Yurtimizda qator ekologik talablar joriy qilinmoqda. Ishlab chiqarishda sarflanadigan suv resurslarini ikkinchi marta ishlatish, konlar yaqinidagi aholi sog'lig'ini muhofaza etish uchun ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sobiq ittifoq davridagi qazib olish va qayta ishlash natijasida yig'ilgan qolgan hamda atrof-muhitga ziyon keltirayotgan ko'p miqdordagi texnogen chiqindilarni ham qayta ishlash, ularning ekologiyaga ta'sirini kamaytirishga muvaffaq bo'lyapmiz. Faoliyatimiz davomida birlamchi e'tibor yangi konlarni o'zlashtirish, mavjudlarni kengaytirish va eng muhimi, atrof-muhitga ziyon keltirayotgan texnogen chiqindilarni qayta ishlash tamoyillariga muvofiq ish yuritilmoqda.

Strategik metallar va minerallar – bugungi tamaddun hamda kelajak taraqqiyotining asosiy kaliti. Eng muhimi, Jahon iqtisodiyotida alohida o'rin tutayotgan ushbu resurslar bilan bog'liq global raqobat sharoitida O'zbekiston ham o'z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun qat'iy qadamlar qo'yib, strategik pozitsiyasini mustahkamlashga intilmoqda.

O'rol YUSUPOV,
O'zbekiston Respublikasi tog'-kon sanoati va geologiya vaziri o'rinbosari.

MAHALLIYLASHTIRISH SAMARASI

Urganch shahridagi "UzXCMG" O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonasi bugungi kunda g'ildirakli va zanjirli ekskavatorlar, greyderlar va boshqa 50 xil turdagi qudratli texnika vositalari ishlab chiqarilmoqda. Ilgari mamlakatimizda qurilish va suv xo'jaligi tizimlari uchun o'ta zarur bo'lgan bunday texnika vositalari Xitoydan valyuta evaziga keltirilgan, ehtiyot qismlar ta'minoti va servis xizmati ko'rsatishda muayyan qiyinchiliklar mavjud edi.

Intilish

Korxonada ishlab chiqarish hajmining ortishi bunday muammolarga yechim topish barobarida, hududning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini o'z vaqtida samarali amalga oshirishda muhim

ahamiyat kasb etmoqda.

– Korxonamizda shu kungacha 1 970 dona maxsus texnika, jumladan, ekskavatorlar, buldozerlar, asfalt zichlovchi katoklar, yuk ortigichlar, avtogreyder, yo'l frezasi ishlab chiqarildi, – deydi korxonada bosh muhandisi Umid Ismoilov. – Barcha

texnikalar xalqaro standartlarga to'la javob beradi. Xitoyning "XCMG" korporatsiyasidan yangi yig'uv liniyasi va uskunalari olib kelib o'rnatilishi natijasida korxonada ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi 50 foizdan oshdi. Bu esa tayyorlanayotgan texnika vositalarining

tannarxi pasayishiga, raqobatbardoshligini ta'minlashga, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, importni kamaytirish orqali valyuta resurslarini tejashga imkon bermoqda.

Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan ushbu korxonada mahsulotlarga nafaqat ichki bozorda, balki qo'shni mamlakatlarda ham talab katta. Shu bois yana yangi turdagi texnika vositalari ishlab chiqarish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari ko'riyapti.

Odilbek O'DAMBOYEV
(«Xalq so'zi»).

SAVDO, LOGISTIKA VA TIBBIYOT MARKAZI

Samarqand viloyatining Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh "Jartepa" chegara o'tkazish punkti yaqinida "O'zbekiston – Tojikiston savdo, logistika va tibbiyot markazi" tashkil etilmoqda.

Qulaylik

Umumiy qiymati 30 million dollarga teng ushbu loyihaga ko'ra, hududda logistika markazi, 400 ta savdo nuqtasi faoliyati yo'lga qo'yilib, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tojikistonliklarga taklif qilinadi.

Yiliga 1,5 million kishiga xizmat ko'rsatishi kutilayotgan ushbu markazda mingta ish o'rni yaratilishi, yiliga 5 million dollarlik eksport amalga oshirilishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu loyihadan zamonaviy tibbiyot markaz ham o'rin oladi.

«Xalq so'zi».

SHAFFOFLIK, ADOLAT VA RAQAMLI ISLOHOTLAR

Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga baho berilib, galdagi vazifalar aniq ko'rsatib o'tildi.

Nuqtai nazar

Sir emas, har qanday davlatning taraqqiyot yo'lida eng katta to'siq va g'ov, bu – korrupsiya. Bugungi kunda dunyodagi hech bir mamlakat korrupsiya muammasidan to'liq xoli emas. Ammo taraqqiyotga intilayotgan, ochiq hamda adolati jamiyat barpo etishni maqsad qilgan davlatlar uchun bu illatga qarshi kurash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Chunki korrupsiya faqat moliyaviy yo'qotish emas, balki xalq ishonchini yemiruvchi, qonun ustuvorligini susaytiruvchi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi xavfli ijtimoiy kasallik hamdir.

Har qanday o'zgarish, avvalo, siyosiy qat'iyatlikdan boshlanadi. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish aynan davlatimiz rahbarining qat'iy iradosi tufayli yangi bosqichga ko'tarildi. Davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik hamda hisobdorlik tamoyillari ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olindi. Bu sohada mustahkam huquqiy baza yaratildi. Jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha g'risida"gi Qonun qabul qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi, davlat xizmatini isloh qilish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish, deklaratsiya tizimini qo'llash kabi muhim mexanizmlar ishlab chiqildi.

Endilikda korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquqiy muhofaza

qiluvchi organlar zimmasidagi vazifa emas. Bu har bir vazirlik, idora, hokimlik va davlat tashkiloti faoliyatining ajralmas qismiga aylanoqda. Barcha tuzilmada komplayens-nazorat tizimlari joriy etilgani esa ichki shaffoflikni ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

Favqulodda holat – murosasizlik belgisi

Afsuski, poraxo'rlilik va korrupsiya o'zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalqat berayotir. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta'kidlanib, "qo'lga tushgan" amaldorlar ommaviy axborot vositalari orqali fosh qilinayotganiga qaramasdan, ayrim sud, prokuratura va idoralar mansabdorlarining qon-qoniga singib ketgan tamagirlik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo'qolib ketmayapti.

Qonun ustuvorligi va uning samarasi berishi, korrupsiyaga qarshi kurash natijadorligi sizu bizga, barchamizga, aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksalishiga ham bevosita bog'liq. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 3-bobi "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish" deb nomlanib, unda

korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, o'quv muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari ustuvor vazifa ekanligi belgilangan.

Prezidentimizning joriy yilni korrupsiyaga qarshi kurashda "favqulodda holat" yili sifatida belgilash tashabbusi jamoatchilik tomonidan katta qiziqish va qo'llab-quvvatlash bilan kutib olindi. Bu ibora shunchaki shior emas. U butun davlat boshqaruvi tizimi, mansabdorlar va jamiyat uchun jiddiy signaldir. Ya'ni bundan buyon korrupsiyaga nisbatan murosaga o'rin yo'q. Endilikda har qanday qonunbuzarlikka qat'iy chora ko'riladi, mas'uliyat yanada kuchaytirib boriladi.

Mazkur yondashuv bir nechta ustuvor vazifalarni belgilab bermoqda. Jumladan, davlat xaridlari va byudjet xarajatlarning to'liq shaffofligini ta'minlash, barcha xizmatlarni raqamli shaklga o'tkazish orqali inson aralashuvini keskin qisqartirish, mansabdor shaxslarning daromad va mol-mulkini ochiqchilik tizimini kuchaytirish, jamoatchilik va OAV nazoratini kengaytirish, "korrupsiyaga qarshi toqatsizlik" tamoyilini amalda ta'minlash shular sirasiga kiradi. Ushbu chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashni oddiy ma'muriy jarayondan strategik, milliy ahamiyatga ega harakatga aylantirmoqda.

Raqamlashtirish – illatga qarshi eng kuchli qurol

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiya, asosan, inson aralashuvi yuqori bo'lgan, shaffoflik yetishmaydigan sohalarda avj oladi. Navbatlar, ortiqcha hujjatbozlik, tanish-bilishchilik, shaxsiy aloqalar – bularning barchasi turli suiiste'molliklarga yo'l ochadi. Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirish islohotlari korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositasiga aylandi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yuzlab xizmatlar onlayn ko'rsatilmoqda. Elektron davlat xaridlari tizimi ishga tushirildi. Elektron auktsion va tender platformalari joriy etildi. "Ochiq byudjet" va "Elektron byudjet" tizimlari fuqarolarga mablag'lar sarfini kuzatish imkonini bermoqda. Qolaversa, soliq va bojxona tizimlari raqamli formatga o'tkazilib, litsenziya va ruxsatnomalar avtomatlashtirildi. Bunday o'zgarishlar natijasida "inson – inson" munosabati o'rini "inson – inson" tamoyili egallamoqda. Ya'ni qarorni shaxs emas, algoritim qabul qilmoqda. Bu esa subyektivlik va manfaatlar to'qnashuvini keskin kamaytiradi.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, raqamlashtirish korrupsiyani jazolash orqali emas, balki uning paydo bo'lish ehtimolini bartaraf etish yo'li bilan kamaytiradi. Bu esa barqaror hamda uzoq muddatli samara beradi.

Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat organlari bilan cheklanib qolmaydi. Unda jamoatchilik faol ishtirok etmas ekan, kutilgan natijaga erishish qiyin. Shu bois mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar,

jurnalistlar faolligi sezilarli darajada oshdi. Ochiq ma'lumotlar portallari, murojaatlar platformalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi davlat idoralari faoliyatini kuzatish, muammolarni ochiq muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu mansabdorlarni yanada mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Chunki har bir qaror, har bir xarajat jamoatchilik nazorati ostida.

Shu bilan birga, bu illatga qarshi kurash faqat qonun va texnologiya bilan cheklanmasligi lozim. Bu, avvalo, ma'naviy masala. Jamiyatda halollik, adolat, vijdon, mas'uliyat kabi qadriyatlar ustuvor bo'lmasa, hech qanday islohot to'liq samara bermaydi. Yosh avlodni halollik ruhida tarbiyalash, davlat va nodavlat tashkilotlari xodimlarida xizmat odobini shakllantirish, "xalqqa xizmat qilish" g'oyasini hayot tarziga aylantirish – bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Korrupsiyaga qarshi kurash – faqat jazo emas, balki ong va madaniyat masalasi.

Bugun O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Siyosiy iroda, huquqiy baza, institutsional islohotlar, raqamli texnologiyalar va jamoatchilik nazorati uyg'unligi ushbu yo'nalishda barqaror natijalar berishi, shubhasiz. Zero, korrupsiyadan xoli, halol va ochiq davlat qurish – Yangi O'zbekistonning oliy maqsadlaridan biridir. Shu yo'lida birlashgan jamiyat, albatta, muvaffaqiyatga erishadi.

Bobir TURSUNOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda mamlakatimizda 135 mingdan ortiq yangi xonadonlar foydalanishga topshirildi.



TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSINING MUHIM ASOSI



Prezidentimizning 2026-yil 5-fevralda qabul qilgan "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori bilan insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan bobokolonimiz hayoti va faoliyatining tarixiy ahamiyatini o'rganish, ilmiy tahlil qilish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Davlatimiz rahbari qarorida belgilangan chora-tadbirlar bu sa'y-harakatlarga o'zgacha ruh baxsh etib, mazkur jarayonning ko'laminu yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Prezidentimiz qaroriga muvofiq, har yili aprelda "Amir Temur oyligi" o'tkaziladi. Ta'lim tashkilotlari va mahallalarda temurshunos olimlar, yozuvchi va san'atkorlar ishtirokida uchrashuvlar uyushtiriladi.

Moziydan sado

Shuningdek, Temuriylar davri tarixini tizimli o'rganish va ilmiy natijalarni keng targ'ib etish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" asosida O'zbekistonda islom sivilizatsiyasi markazida "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati" mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazish, "Temur tuzuklari" asarining ilmiy izohli matnini o'zbek, fors, arab, xitoy, ingliz, fransuz, ispan va rus tillarida chop etish, "Temuriylar davrining 100 nodir qo'lyozmasi", "Temuriylar davrining 100 nodir durdonasi" kitob-albomlarini yaratish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, qarorda xorijiy davlatlarda saqlanayotgan temuriylar davriga oid asl yozma manbalar nusxalarini O'zbekistonga olib kelish, "Tirik tarix" loyihasi asosida suratga olingan, Amir Temur saltanatining Yevropa davlatlari bilan diplomatik va elchilik aloqalari yoritib berilgan tarixiy-badiiy va hujjatli filmlarni Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi xorijiy mamlakatlarda namoyish etish, xorijiy davlatlarda "Buyuk temuriylar tarixi va madaniy merosi" mavzuida taqdimotlar, mediatadbir va anjumanlar o'tkazish, temuriylar davri manbalari elektron platformasini ishga tushirish belgilangan.

Bugungi kunda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligiga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mita ayni yo'nalishda izchil ish olib bormoqda.

Mamlakatimiz milliy taraqqiyotning yangi bosqichi - Uchinchi Renessansga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o'rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o'rganish, yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Zotan, Amir Temur bobomiz markazlashgan davlatga asos soldi va uning kuch-qudratini har tomonlama mustahkamlab, shon-shuhratini butun

jahonda yoydi, buyuk saltanatning hukmdori sifatida millatlar va xalqlarni birlashtirdi. U zotning davrida iqtisodiyot va savdo, madaniyat va ilm-fan, me'morchilik va tasviriy san'at, musiqa va she'riyat yuqori cho'qqilarga ko'tarildi. Bir so'z bilan aytganda, temuriylar davri Renessansga asos solindi.

Bu buyuk evrilishlar Amir Temurning nafaqat mamlakat ichida yuritgan odilona siyosati, balki o'zaro savdo-sotiq va madaniy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan oqilona tashqi siyosatining natijasidir.

Afrikanadan Yevropagacha

Sohibqiron Amir Temurning xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari keng qamrovli bo'lib, bu saltanat taraqqiyotida muhim o'rinni tutar edi. Xususan, tarixiy manbalarda yozilishicha, 1402-yil 28-iyulda Amir Temur huzuriga kelgan Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III elchilari safida Payo de Soto Mayor va Ernan Sanches de Palasuelos ham bo'lgan. Elchilarning qaytish paytida Sohibqiron ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida ular bilan birga qobiliyatli beklardan Muhammad Keshiyini ham maktub va sovg'alar bilan Kastiliyaga elchi qilib jo'natadi. Muhammad Keshiy u yerga eson-omon yetib borib, maktub va sovg'alarini Don Enrike III ga topshiradi.

Ma'lumki, Amir Temur Nasaf va Kesh olimlari, diniy hamda dunyoviy ilmlardan xabardor, xorijiy tillarni biladigan qobiliyatli shaxslarni o'z saroyiga ishga jalb qilgan. Ular turli lavozimlar qatori elchilik vazifasini ham adab etishgan. Masalan, Muhammad Keshiy Sohibqironning elchisi sifatida ma'lum muddat Ispaniyada yashab qaytgan bo'lsa, Mavlonno Abdulloh Keshiy Amir Temur tomonidan Misr sultoni Faraj saroyiga elchi sifatida jo'natilgan.

Amir Temur, odatda, Yevropa mamlakatlariga masihiylik dini peshovlarini elchi qilib yuborgan. Musulmon diplomatlardan faqat Muhammad Keshiygina Yevropaga borishga muvassar bo'lgan. Bu ham

uning qobiliyatidan, bir necha tillarni, ehtimol, Yevropa lisonlaridan birini bilganligidan dalolat beradi.

O'sha davrda Amir Temurning shuhrati butun Yevropaga tarqalgan edi. Shu sababli Muhammad Keshiy Kastiliya qiroli Don Enrike III huzurida katta hurmat-ehtirom bilan kutib olinadi. U qiroli saroyidagi va yirik zodagonlar qasridagi qabullarda ishtirok etadi. Qiroli uni Rui Gonsales de Klavixo boshchiligidagi o'z elchilari bilan birga Samarqandga kuzatib qo'yadi.

Amir Temur davri diplomatiyasiga oid tarixiy manbalarda bunday faktlarni ko'plab uchratish mumkin.

Tarixga muhlangan maktublar

Amir Temur va temuriylarning mohirona diplomatik faoliyatiga o'sha davrdan hozirgacha saqlanib qolgan va Fransiyaning milliy arxivida saqlanayotgan maktublar ham yaqqol guvohlik beradi.

Amir Temur va Sharl VI o'rtasidagi 1402-1403-yillar yozishmalariga doir dastlabki muxtasar ma'lumot XIX asr boshlarida yashab o'tgan fransuz tarixchisi Flossaning 1811-yil nashrdan chiqqan taqdimotida keltirilgan.

Amir Temurning Sharl VIga maktubi forsiy tilda, Sharq hukmdorlarining uslubiga o'xshamaydigan, noodatiy usulda yozilgan. Maktubda "va'xvon ruhoniy Fransisk" Fransiya qiroli Amir Temurga maktublar olib kelgani haqida so'z boradi. Ayni chog'da, maktub matnidand shunday mazmun kelib chiqadiki, Amir Temur ilgari ham Fransiyadan maktublar olib turgan. Lekin bu xatlar bizgacha yetib kelmagan.

Mazkur maktubning asl nusxa ekaniga hech qanday shubha yo'q. Buni xatning ikki joyiga Amir Temurning mo'jaz muhri bosilgani ham yaqqol tasdiqlaydi. Xatdagi muhning, haqiqatdan ham, Sohibqironga tegishli ekanini aksariyat tarixchilar, jumladan, elchi Klavixo va muarrix Ibn Arabshoh tomonidan isbotlangan.

Ahamiyatli jihati shundaki, Klavixo - Amir Temurni ko'rib, u bilan bevosita suhbatlari asosida xotiralar yozgan to'rt kishidan biri.

Bu holat Ibn Arabshoh, Ibn Xaldun, arxiyepiskop loann yaratgan xotiralar kabi ispan elchisi kundaliklarining ham ishonchligini yanada oshiradi.

Parijdagi Milliy kutubxonada Amir Temurning Sharl VIga yuborgan ikkinchi maktubi saqlanmoqda. U xatning lotincha tarjimasini bizgacha yetib kelgan bo'lib, ilk bor Silvestr de Sasi tomonidan chop etilgan.

Shu bilan birga, Sharl VI tomonidan Amir Temurga yuborilgan maktubning lotincha tarjimasini ham mavjud. Bu Fransiya qirolining Sohibqironga yo'llagan xatlari orasida bugungi kungacha saqlanib kelayotgan yagona maktub sifatida alohida qimmatga ega bo'lgan noyob hujjatdir. Amir Temurning har ikkala maktubiga 1402-yil 1 avgust sanasi qo'yilgan bo'lsa, Sharl VI maktubiga 1403-yil 15-iyun sanasi bitilgan.

Amir Temur hazratlarining tashqi siyosati, diplomatik yozishmalari dunyo olimlari va mamlakatimiz mutaxassislari tomonidan atroflicha o'rganilgan va o'rganilmoqda. Bundan bir muddat oldin Fransiyaning taniqli sharqshunos, boburshunos olimi Jan-Lui Bake-Grammon bilan Parijda uchrashganimizda, u menga ruminiyalik tarixchi va turkshunos olim Mariya-Matilda Aleksandresku-Derska xonim qalamiga mansub "Amir Temurning Anatoliyaga yurishi (1402)" nomli kitobining 1942-yilda nashr etilgan nodir nusxasini taqdim qilgandi.

Amir Temur maktublari bundan qariyb yetti asr avval yozilganiga qaramay, ulardagi ayrim jihatlari xuddi bugungi kunimizning o'ta muhim da'vati kabi jaranglab turibdi: dunyo tojirlari bilan obodligi, saltanatning ulug'vorligi, avvalo, o'zga saltanatlarni ulug'vorligini e'tirof etish, rasmiy va

Shu ma'noda, bugungi kunda Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykali o'rnatilgani, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining faoliyati yo'lga qo'yilgani, "Amir Temur" ordeni ta'sis qilinishi, yurtimizdagi ko'plab ko'cha va xiyobonlarga ulug' ajdodimiz nomi berilgani har birmizga cheksiz faxr va iftixor tuyg'usini baxsh etadi.

Davlatimiz rahbari qarorida ta'kidlanganidek, "Mustabid tuzum tomonidan nohaq qoralab kelingan bu ulug' zotning muborak nomi va xotirasi mustaqillik yillarida tarixiy adolat asosida qayta tiklandi. Sohibqiron Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o'zlikni anglash, an'ana va qadriyatlarimizni tiklash borasida xalqimizga ulkan ma'naviy kuch bag'ishlab kelmoqda".

Akmal SAIDOV, akademik.

g'ayrirasmiy tafovutlarga qaramay, fuqarolarning izzat-ikromini baho keltirish, insoniy huquq va erkinliklarga qat'iy amal qilish bilan belgilanishi anglab yetilmoqda.

Bundan tashqari, temuriylarning diplomatik yozishmalariga ashyoviy dillat tarixiga Amir Temur va uning uchinchi o'g'li - G'arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjon hokimi Mironshoh Mirzo bilan Fransiya, Angliya, Kastiliya va boshqa mamlakatlar qirollari o'rtasidagi maktublarni ko'rsatish mumkin. Ushbu maktublardan ayrimlari Fransiya milliy arxivida, Britaniya muzeyida va Ispaniya arxivlarida saqlanmoqda.

Amir Temur va temuriylarning diplomatik yozishmalari, birinchidan, Yevropa o'zidan ancha avval uyg'ongan Sharqqa hamisha qo'l cho'zib kelganini, ikkinchidan, Sharq ham bu o'lkalar bilan aloqa bog'lashga, hamkorlik qilishga, savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yishga, e'tiqodiy tafovutlarga qaramasdan tujjurlarni izzatlashga, ularning huquqlarini himoya etishga harakat qilganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Amir Temur diplomatiyasining ahamiyati

Tarix takrorlanadi. Bashariyat tarixi bo'laklarga bo'lilmaydi. U yaxlit va yagona, insoniyatning bir-biriga suyanib, bir-birini to'ldirib va bir-biridan bahra olib davom etuvchi taraqqiyot jarayonidir. Buyuk Ipak yo'li an'analari tiklanib borayotgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Sharq va G'arb olimlari ham insoniyat umumiy tarixini, jumladan, Markaziy Osiyo tarixi, uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lmish Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini yaqin hamkorlikda yaratmoqchi lozim. Bu tarixni umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yozishda saqlanib qolgan tarixiy manbalardan, diplomatik yozishmalardan foydalanish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur nomi, ulug' Sohibqiron siymosi xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iymon-oqibatli bo'lishda, madaniy-ma'rifiy idilzarimizni chuqur anglashda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangidan-yangi kuch-quvvat va shijoat bag'ishlab turibdi.

INSONIYATGA QARSHI ENG OG'IR JINOYAT

BMT Bosh Assambleyasida Atlantika okeani sohillari bo'yab amalga oshirilgan qul savdosini "insoniyatga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoiyat" deb tan olish uchun ovoz berildi.

Mazkur qarorni 123 mamlakat qo'llab-quvvatladi - ular orasida Rossiya, Xitoy, Ukraina, Belarus, Serbiya, Afrika va Karib havzasi davlatlarining aksariyati bor. Uch mamlakat - AQSh, Isroil va Argentina rezolyutsiyaga qarshi ovoz berdi. Rezolyutsiyada afrikaliklarni qul qilish ko'lami va tizimligi sababli "eng og'ir jinoiyat" deb belgilandi.

Hujjat qul qilingan insonlarning avlodlariga tovon to'lash va tarixiy adolatni tiklash mexanizmlarini yaratishga chaqiradi. Olib chiqib ketilgan san'at asarlari va arxivlarni o'z yurtiga bepul qaytarish talab etiladi. AQSh va boshqa qarshi davlatlar qulchilikni qoralasa-da, tarixiy voqeyalar uchun moddiy tovon to'lash bo'yicha huquqiy majburiyatlarini o'lmasligini bildirgan. Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi davlatlari ham huquqiy asoslar yetarli emasligi sababli ovoz berishda betaraf qolgan.

TARIXIY TASHRIFGA TARADDUD

AQSh Prezidenti Donald Tramp 14-15-may kunlari Xitoyga tashrif buyuradi.

"Tarixiy tashrif uchun barcha tayyorgarlik o'z nihoyasiga yetmoqda", deb yozdi Oq uy rahbari o'zining "Truth Social" ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida. Oq uy matbuot kotibi Kerolyn Levitt esa matbuot anjumanida uchrashuv sanasini tasdiqladi. "Rais Si hozirgi tahlikali pallada ushbu uchrashuvning ahamiyatini anglab yetganiga ishonaman", dedi K. Levitt.

Hozircha rasmiy Pekin XXR Raisi Si Szinpingning may oyidagi uchrashuvlari haqida ma'lumot bermadi. 26-mart kuni Xitoy Tashqi ishlar vazirligining rasmiy vakili Lin Szyan jumalistlar bilan uchrashuvda har ikki tomon Prezident Trampning Xitoyga tashrifi borasida muloqot olib borayotganligi hamda oliy darajadagi muzokaralar strategiy o'naltiruvchi rol o'ynashini qayd etdi.

Eslatib o'tamiz, D. Tramp o'zining birinchi prezidentlik davrida Xitoyga tashrifini 2017-yilning 8 - 10-noyabr kunlari amalga oshirgan edi.

TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOSI

"Molecular Psychiatry" jurnalida chop etilgan maqolada ta'kidlanishicha, ruhiy va psixofaol moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq buzilishlar tibbiyotning dolzarb muammasiga aylanib bormoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yab o'smirlarning taxminan 14 foizi ushbu guruh kasalliklaridan aziyat chekadi. Biroq ko'pchilik pandemiya bu ko'rsatkichga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin, degan fikrda. Yoshlarning ruhiy salomatligiga katta e'tibor qaratilayotganiga qaramay, o'smirlar (10 - 19 yosh) va yoshlar (20 - 24 yosh) o'rtasida ruhiy kasalliklar epidemiologiyasi bo'yicha bilimlarda jiddiy bo'shliq saqlanib qolmoqda.

Ohayo shtati universitetidan Milap Nahata boshchiligidagi tadqiqot guruhi 1990-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda o'smirlar va yoshlar o'rtasida ruhiy kasalliklarning global va mintaqaviy tarqalishini baholash uchun 2021-yilgi Global kasallik yuki ma'lumotlar to'plamidan foydalandi. Ma'lum bo'lishicha, 2021-yilda dunyo bo'yicha 184,9 mln. o'smir (15,2 foiz) va 94,1 mln. navqiron avlod vakili (16,1 foiz) ruhiy kasalliklarga chalingan. O'smirlar davrida ruhiy buzilishlarga ko'proq erkaklar, o'spirinlik davrida esa ayollar moyil bo'lgan. Depressiv va xavotirli buzilishlar hamda ovqatlanish xulq-atvorining buzilishi ayollarda, autizm spektrining buzilishi, diqqat yetishmasligi va giperfaollik sindromi, shuningdek, xulq-atvor buzilishi erkaklarda ko'proq uchradi. Bundan tashqari, 10,1 mln. o'smir va 19,6 mln. nafar yosh psixofaol moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq kasalliklarga chalingan.

Kasallikning asosiy yuki Avstraliya va Okeaniya, Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropa kabi yuqori daromadli hududlarda to'plangan.

ENDI HAYDOVCHILAR BOSIQ BO'LADI

Qirg'izistonda haydovchilarning yo'ldagi agressiv xatti-harakatlari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

Bu haqda "24.kg" agentligi xabarida aytiladi. Qonun loyihasi huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksga o'zgartirishlar kiritish hamda yangi - 189-moddada joriy etilishini ko'zda tutadi. U yo'llardagi mojarolarni kamaytirish, haydovchilar intizomini oshirish va yo' madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Loyihaga ko'ra, yo'lining qatnov qismida xavfsizlikka tahdid soluvchi janjal yoki mushlatishuvda ishtirok etganlik uchun 10 ming so'm jarima belgilanadi. Agar qoidabuzarlik bir yil ichida takrorlansa, jazo kuchaytiriladi. Jumladan, haydovchi 6 oyga transport boshqarish huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Tashabbus mualliflarining ta'kidlashicha, so'nggi yillarda mamlakatda yo'l mojarolari ko'payib, ochiqdan-ochiq jismoniy to'qnashuvlarga aylanayapti. Bu esa nafaqat mojarolar ishtirokchilari, balki yon-atrofdagilar uchun ham xavf tug'diradi.

Hujjat Jogorku Keneshtayida e'lon qilingan va hozir muhokama bosqichida.

Internet xabarlariga asosida Sharofiddin TO'LAGANOV («Xalq so'zi») tayyorladi.

«KANALIZATSIYAGA TASHLA, OQIB KETADI»

Oqova suv tizimlariga shu zaylda munosabatda bo'lish qator muammolarni keltirib chiqarmoqda

Bugun respublikamiz bo'yicha oqova suvlarni chiqarib yuborish va tozalash darajasi qariyb 23 foizga yetgan. Birgina poytaxtimiz misolida oladigan bo'lsak, uchta - Bo'zsu, Salar hamda Bektemir oqova suvlarni tozalash inshootlari kuniga jami 1 mln. 600 ming kub metr dan ortiq ishlatilgan suvlarni tozalab, tabiatga qaytarmoqda.

Achchiq, ammo ochiq gap

Taajjubki, xuddi shu joyda g'oyat achinarli holat yuz berayapti. Poytaxtdagi qator korxonalar, hovliyu ko'p qavatli uylarda yashayotgan ayrim aholi vakillari tomonidan ming turli chiqindilar oqova suvlar tarmog'iga tashlab yuborilmoqda. Bu, o'z navbatida, tozalash inshootlaridagi uskunalar ishdan chiqishiga, shahar havosining yanada ifloslanishiga, ekologiya keskin buzilishiga olib kelyapti. Bu haqda respublika Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi bosh mutaxassisi Ilhom Dadaxodjayev shunday dedi:

usiz ekologik sog'lom muhit haqida so'zlashning o'zi o'tiqcha. Ana shu jarayonda aholining ma'naviy qiyofasiyu tozalik-ozodalikka e'tibori ham yaqqol namoyon bo'ladi. Afsuski, poytaxtimizdagi 15 ta to'qimachilik korxonasi va 3 ta kushxona qatori ba'zi bir odamlar ham oqova suv tarmog'iga o'ta baddoyi turli chiqindilar, kimyoviy moddalarni muttasil tashlab yubormoqda. Mol terisi, eski kiyim-kechak, yarqosq poyabzallar, go'daklarning ishlatilgan "pampersi", qo'ying-chi, xonadonda keraksiz tuyulgan barcha narsa oqova suv quvurida suzib kelyapti va tozalash uskunalariga tiqlimoqda. Birgina "Salar" korxonasining o'zida kuniga 4 tonnadan ortiq suvda

erimaydigan kattayu kichik chiqindilar "g'alviri"ga ilinmoqda. Ogohlantirishu jarimalar qo'llash mullaqo samara berayotgani yo'q.

Misol uchun, Bo'zsu oqova suvlarni tozalash inshootida bo'lgan chog' qip-qizil tUSDagi suvni ko'rib, mutasaddilardan buning sababini so'radik. "To'qimachilik korxonasining chiqindisi, ishlatib bo'lingan bo'yoq tarmoqqa ag'darilgan. Endi buni tozalab bo'lmaydi, dalaga ham shu zayl chiqib ketadi. Chunki korxonamizda oqova suvlar tarkibidagi bo'yoqlarni tozalaydigan texnologiyaning o'zi yo'q", deyishdi.

Aslida, to'qimachilik korxonasi chiqindiga aylangan bo'yoqni oqova suvga to'kmay, o'zining birlamchi tozalash inshootida qayta ishlamoqchi kerak. Chunki zaharli bo'yoqqa to'yinagan suv dalaga yetib borgan, ekinni ham quritadi, uning foydasidan ko'ra ziyoni ko'p.

Achinarlisi, ko'plab korxonalarda birlamchi tozalash tizimining o'zi yo'q, bolarlari ham ortiqcha xarajat, deya ishlashmaydi. Chunki bizda oqova suvga zaharli bo'yoq oqizish uchun javobgarlik chet

eldagidek qattiq emas. "E noinsof, suvga tupurish ham dinu diyonatda yo'q, bu nima qilganing?" deya hech kim bog' urmaydi ham. Zamonaviy dunyoda esa ichimlik suvi yo oqova suv bo'ladimi, har ikkisini ham bul'agan odam jamiyatda davlat oldida qattiq malomatu jazoga ro'baro' bo'ladi.

Aholining turli maishiy chiqindilarni oqova suvga tashlab yuborishi uchun ham amaldagi qonunchiligimizda "qizil" chiziq, qat'iy javobgarlik yo'q. Shu sababli, bugun "kanalizatsiya" tizimidagi sun'iy muammolar ilidiz otib, poytaxtning O'zgarish, Qumariq singari o'nlab mahallalaridagi havoning ifloslanishi odatiy tus olmoqda. Ayniqsa, yoz keldi deguncha, ahvol yanada yomonlashadi. Menimcha, bunga qonuniy yo'l bilan butkul barham berish kerak. Oqova suv inshootlarini shahardan tashqariga chiqarish, shu orqali dunyoga yuz tutgan, sayohatlik salohiyati oshib borayotgan yurtimiz poytaxtining ekologik qiyofasini, havosini havas qiladigan darajaga keltirish esa davr talabidir.

Abdunabi ALIQULOV («Xalq so'zi»).

Superligadagi har bir futbol klubi uchun 2026-yilda 35 mlrd., 2027-yilda 30 mlrd. va 2028-yilda 25 mlrd. so'mdan beriladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksal olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilishi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir H. Qarshiyev. Musahhib S. S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 02.15 Topshirildi - 02.25 1 2 3 4 5 6